

UDK (UO'K): 338.246.2:504

**SIRKULYAR IQTISODIYOTDA “POLICY MIX” MEXANIZMINING
AHAMIYATI**

Zokir Rustamovich SODIKOV

dotsent

iqtisodiyot fanlari nomzodi

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Toshkent, O‘zbekiston

ORCID 0000-0002-0195-4573.

z.sodiqov@iiua.uz

Annotatsiya

Maqolada sirkulyar iqtisodiyot sharoitida “policy mix” mexanizmining mazmuni, ahamiyati va amaliy qo‘llanish jihatlari tahlil qilingan. Xususan, turli iqtisodiy, huquqiy va institutsional siyosat vositalarining o‘zaro uyg‘unlashuvi orqali resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, rivojlangan davlatlar tajribasi asosida “policy mix” yondashuvining samaradorligi baholangan hamda uni milliy iqtisodiyotga joriy etishning ustuvor yo‘nalishlari aniqlangan.

Tayanch so‘zlar: sirkulyar iqtisodiyot, policy mix, barqaror rivojlanish, ekologik siyosat, resurs samaradorligi, chiqindilarni boshqarish, innovatsion yondashuv, institutsional mexanizmlar, yashil iqtisodiyot.

**ВАЖНОСТЬ МЕХАНИЗМА «КОМБИНАЦИИ ПОЛИТИЧЕСКИХ
МЕР» В ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКЕ**

Зокир Рустамович СОДИКОВ

доцент

кандидат экономических наук

Международной академии исламоведения Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В статье рассматривается значение механизма «policy mix» в условиях циркулярной экономики. Особое внимание уделяется интеграции экономических, правовых и институциональных инструментов политики, направленных на повышение эффективности использования ресурсов, сокращение отходов и обеспечение устойчивого экономического роста. Также анализируется международный опыт и определяются приоритетные направления внедрения данного подхода в национальную экономику.

Ключевые слова: циркулярная экономика, policy mix, устойчивое развитие, экологическая политика, эффективность ресурсов, управление отходами, инновации, институциональные механизмы, зеленая экономика.

Bugungi kunda global miqyosda resurslarning cheklanganligi, ekologik muammolarning keskinlashuvi va iqlim o‘zgarishlari iqtisodiy rivojlanishning yangi modelini shakllantirish zaruriyatini keltirib, chiqarmoqda. An’anaviy “olish–

ishlab chiqarish–iste'mol qilish–tashlash” (linear iqtisodiyot) modeli o‘rniga sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasi keng joriy etilmoqda. Sirkulyar iqtisodiyot samarali ishlashi uchun esa alohida siyosat vositalari emas, balki ularning o‘zaro uyg‘unlashgan tizimi, ya’ni “policy mix” mexanizmi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mexanizm iqtisodiy, ekologik va institutsional siyosat choralarini integratsiyalash orqali barqaror rivojlanishga erishishni ta’minlaydi. Shu bois mazkur mavzu ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Sirkulyar iqtisodiyot sharoitida “policy mix” mexanizmining mazmuni, tarkibi va samaradorligini o‘rganish hamda uni milliy iqtisodiyotda qo‘llash bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish. Tadqiqotning maqsadidan kelib chiqadigan vazifalar:

“Policy mix” mexanizmining iqtisodiy mohiyatini ochib berish.

Turli siyosat vositalarining o‘zaro uyg‘unlashuvini o‘rganish.

Xalqaro tajribani (Yevropa Ittifoqi, rivojlangan davlatlar) tahlil qilish.

Milliy iqtisodiyotda “policy mix”ni joriy etish yo‘nalishlarini aniqlash.

Sirkulyar iqtisodiyot tizimida davlat tomonidan qo‘llaniladigan siyosat mexanizmlari tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Sirkulyar iqtisodiyot modelining “policy mix” mexanizmi doirasida iqtisodiy, ekologik va institutsional siyosat vositalarining o‘zaro ta’siri va samaradorligi tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil va sintez, taqqoslash (komparativ) tahlili, statistik va empirik tahlil, iqtisodiy-mantiqiy yondashuv, xalqaro tajribani o‘rganish va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati “policy mix” tushunchasining sirkulyar iqtisodiyotdagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslanishida, siyosat vositalarining integratsiyalashgan modeli ishlab chiqilishida namoyon bo‘lsa, amaliy ahamiyati – bu taklif etilgan yondashuvlar davlat siyosatini shakllantirishda qo‘llanilishida, resurslardan samarali foydalanish va chiqindilarni kamaytirishga xizmat qilishida, yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyalarini takomillashtirishga yordam berishida yuzaga chiqadi.

Tadqiqot natijasida quyidagilar aniqlandi:

“Policy mix” mexanizmi sirkulyar iqtisodiyot samaradorligini oshiruvchi asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Sirkulyar iqtisodiyotni joriy etish uchun yagona siyosat vositalari yetarli emas, ularning kompleks qo‘llanilishi talab etiladi.

Rivojlangan iqtisodiyotlarda rag‘batlar (subsidiyalar, soliq imtiyozlari), normativ-huquqiy choralar va innovatsion siyosat uyg‘un holda qo‘llaniladi.

Milliy darajada institutsional muvofiqlashtirish yetarli darajada rivojlanmaganligi asosiy muammolardan biri hisoblanadi.

Muhokama. Sirkulyar iqtisodiyotning “policy mix” mexanizmi kombinatsiyalashgan siyosat paketlari yondashuviga asoslanadi. Bu chiziqli modeldan (“olish – ishlab chiqarish – iste‘mol qilish – tashlab yuborish”) chiqib, yopiq sikl “reduce – reuse – recycle – regenerate” (kamaytirish – qayta ishlatish – qayta ishlash – qayta tiklash) ga o‘tishni ta‘minlovchi mexanizmdir. Uning asosiy ustuvor jihatlari:

chiqindilarni minimallashtirish;

resurs samaradorligini oshirish;

iqlim o‘zgarishiga moslashish;

yangi “yashil” ish o‘rinlarini yaratish kabilardan iborat.

Shuning uchun “policy mix” bitta alohida mexanizmga asoslangan iqtisodiy yoki moliyaviy siyosatni emas, balki bir necha turdagi iqtisodiy siyosat vositalarining (regulyator, iqtisodiy, axborotli, institutsional va xalqaro) o‘zaro uyg‘unlashtirilgan kombinatsiyasini talab etadi. Bu paketlar birgalikda ishlaganda sinergetik samara beradi. Chunki, qonunlar rag‘batlantirish vositalari, monitoring texnologiya transferti, davlat-xususiy sheriklik esa norasmiy sektorni qonuniylashtirish bilan birlashadi. Shuningdek, jahon tajribasi (Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Janubiy Koreya) shuni ko‘rsatadiki, mazkur, sirkulyar iqtisodiyot modelini joriy etishda faqat bitta iqtisodiy yoki moliyaviy instrument kifoya qilmaydi. Zero, muvaffaqiyat aynan kombinatsiyalashgan paketlarda yuzaga chiqadi.

“*Regulyator baza (Regulatory Framework)*” (tartibga soluvchi asos yoki huquqiy-me’yoriy) – milliy qonunlar, qoidalar, me’yorlar va nazorat mexanizmi to‘liq to‘plamdan iborat. U xalqaro standartlarga asoslangan yoki ularga moslashtirilgan bo‘ladi. Shu bois, regulyator baza qonunlarni, hukumat qarorlari, vazirliklar buyruqlari va me’yoriy hujjatlarni, standart va texnik reglamentlarni, nazorat va monitoring mexanizmlarini, litsenziyalash, ruxsat berish, jarima va javobgarlik qoidalarini o‘zida mujassam qiladi:

Xalqaro standartlarga asoslangan bu regulyator baza xalqaro tashkilotlarning standartlari va eng yaxshi xalqaro amaliyotlarga (best practices) tayangan holda yaratilgan yoki moslashtirilganligini bildiradi. Masalan, bu borada, ISO 14001 (atrof-muhitni boshqarish), ISO 9001 (sifat boshqaruvi); IFRS (Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari); Basel III (bank kapitali standartlari); WTO/GATT savdo qoidalari; Yevropa Ittifoqi va boshqa rivojlangan mamlakatlar tajribasini namuna sifatida ko‘rsatish mumkin.

Xalqaro standartlarga asoslanganlikning afzalliklari quyidagilar:

Xorijiy investorlar uchun jozibadorlik va ishonch ortadi.

Mahsulot sifati va xavfsizligi yaxshilanadi.

Xalqaro bozorlarga integratsiya (JST, Yevropa Ittifoqi) osonlashadi.

Korruptsiya va samarasizlik kamayadi.

Mahalliy korxonalar xalqaro bozorga chiqishi yengillashadi.

O‘zbekistonda bu yondashuv bank-moliya, texnik tartibga solish, farmatsevtika, raqamli iqtisodiyot va atrof-muhit sohalarida faol qo‘llanilmoqda. Chunki, Jahon bankining O‘zbekiston agrosanoat sektori uchun ishlab chiqqan CEAP (Circular Economy Action Plan – Sirkulyar iqtisodiyot harakatlar rejasi) – mamlakatning sirkulyar iqtisodiyotga o‘tishidagi eng muhim strategik hujjat hisoblanadi. U 2022-yil mart oyida Jahon banki va KPMG hamkorligida yakunlangan bo‘lib, uning asosiy xususiyatlari mavjud bo‘lib, u 2020-yildan boshlab Korea Green Growth Trust Fund (KGGTF – Koreya Yashil O‘shish Trast Jamg‘armasi) mablag‘lari hisobiga tayyorlangan. Unda, Agrosanoat (agri-food) sektori tanlangan bo‘lib, bu soha O‘zbekiston iqtisodiyotida katta ulushga ega

bo'lgani bois u suv tanqisligi, chiqindilar, post-harvest (hosil yig'im-terimdan keyingi) yo'qotishlar hamda GHG (Greenhouse Gas – issiqxona gazlari) emissiyasi bo'yicha eng muammoli va o'rganilishi dolzarb sektor hisoblanadi. Bu hujjat maxsus O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan va 2021–2022-yillarda hukumat, biznes, NNT va xalqaro hamkorlar ishtirokida bir necha bosqichli konsultatsiyalar o'tkazilgan. Xalqaro standartlarga asoslangan regulyator baza sifatida tan olingan bo'lib, CEAPning tarkibi 5 ta asosiy yo'nalish bo'yicha 17 ta aniq harakatni (17 specific actions) taklif qiladi. Ular:

Suv aylanishi (Water Circularity).

Bioresurslardan foydalanish (Bioresource Utilization).

Aniq dehqonchilik (Precision Farming).

Resurs va energiya samaradorligi (Resource and Energy Efficiency).

Barqaror qadoqlash (Sustainable Packaging) kabilardan iborat.

CEAP nafaqat nazariy reja, balki investitsiya talablari, iqtisodiy naf keladigan va ekologik natijalarni hisobga olgan amaliy “yo'l xaritasi”dir. U O'zbekistonning “Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi 2030” va BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) bilan to'liq uyg'unlashgan.

Sirkulyar iqtisodiyot modelida harakatlarning asoslari

Yo'nalish (Thrust Area)	Misolalar (17 harakatdan ba'zilari)	Asosiy muammo va natija
Suv aylanishi (Water circularity)	Drip irrigation, IoT sensori, chiqindi suvlarni qayta ishlatish, tensiometrlar	Suvni tejash, GHG emissiyasi CO ₂ kamayishi
Bioresurslardan foydalanish	Organik chiqindilardan kompost, go'ngdan elektr ishlab chiqarish, bioresurslarni oziq-ovqatga aylantirish	Post-harvest yo'qotishlarni kamaytirish, CO ₂ tejash
Aniq dehqonchilik (Precision farming)	IoT va masofaviy monitoring, o'g'it va suvni aniq dozaga solish	Suv va resurs tejashi uchun qimmat loyihalar kerak.
Energiya samaradorligi	Sovutish tizimlarini modernizatsiya, anaerob fermentatsiya, quyosh suv isitgichlari	Energiya tejash, CO ₂ kamayishi
Barqaror qadoqlash (Sustainable packaging)	PET butilkalarini sintetik tolaga aylantirish, chiqindilardan bioplastmassa ishlab chiqarish	Chiqindilarni kamaytirish, CO ₂ tejash + daromad olish

Bu harakatlar aniq loyihalar shaklida (drip-irrigation – ekinlarga suvni tomchi-tomchi qilib, bevosita ildiz qismiga yetkazib berish texnologiyasi bo'lib, u maxsus quvurlar va tomchilatgichlar orqali suv beriladi, suv isrof bo'lmaydi va aniq

miqdorda sugʻorish amalga oshadi. Uning afzalliklari suvni tejaydi (30–60% gacha), hosildorlikni oshiradi, shoʻrlanishni kamaytiradi. Bu texnologiya ayniqsa suv tanqis hududlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.) dasturlari, anaerob digesterlar (organik chiqindilarni kislorodsiz muhitda parchalaydigan qurilma hisoblanadi. Natijada biogaz (metan) hosil boʻladi, organik oʻgʻit olinadi. Unda chiqindilar kamayadi, energiya ishlab chiqariladi, ekologik zarar kamayadi. Bu sirkulyar iqtisodiyotda “chiqindidan resurs olish” tamoyili hisoblanadi.), bioplastmassa (biologik manbalardan ishlab chiqariladigan plastik mahsulotlar tayyorlaydigan korxonalar) amalga oshirilishi mumkin. Bular, xalqaro standartlarga asoslangan regulyator baza boʻlib, u siyosat, qonun-qoidalar, standartlar va monitoring tizimi uchun asos hisoblanadi. Xalqaro standartlar – bu, Yevropa Ittifoqining sirkulyar iqtisodiyot faoliyat rejasi (Circular Economy Action Plan – EU CEAP), Ellen MacArthur Foundation tamoyillari, BMT SDG (Sustainable Development Goals – Barqaror rivojlanish maqsadlari), Jahon bankining global tajribasi kabilardan iborat. Oʻzbekiston uchun bu hujjat milliy strategiyalarga (2030-yilgacha Yashil iqtisodiyotga oʻtish strategiyasi), NDC (Milliy darajada belgilangan majburiyatlar)ga mos va ularni amaliyotga joriy etish uchun “yoʻl xaritasi” hisoblanadi. U multi-stakeholder (koʻp tomonlama manfaatdorlar) yondashuviga asoslangan boʻlib, unda davlat, biznes, fuqarolik jamiyati va xalqaro tashkilotlar hamkorligi vujudga keladi. Umuman bu CEAP agrosanoatda sirkulyar iqtisodiyotni ilk bora tizimli ravishda reja qilingan mexanizm boʻlib, u nafaqat chiqindilarni kamaytirishga, balki yangi ish oʻrinlari yaratishga, eksportni oshirishga, suv va energiyani tejashga, iqlim oʻzgarishiga chidamlilikni oshirishga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda ham Jahon banki, GGGI, SWITCH-Asia va boshqa hamkorlar hamda xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar turli iqtisodiy, ekologik va institutsional loyihalarni amalga oshirish orqali davom etmoqda. Xususan, bulardan Jahon banki global moliyaviy institut boʻlib, u davlatlarga, kreditlar, grantlar va ekspert maslahatlari beradi. Asosan uning faoliyati infratuzilmalarga, qishloq xoʻjaligiga, energetika sohasiga va kambagʻallikni qisqartirishga qaratilgan

bo'ladi. Masalan: suvni tejash, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish loyihalari shular jumlasiga kiradi.

Bugungi kunda O'zbekistonda Jahon banki, GGGI, SWITCH–Asia kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan ko'plab loyihalar mavjud bo'lib, ulardan biri Jahon banki ko'magida 2025–2030-yillarda amalga oshiriladigan “Geofazoviy ma'lumotlar tizimini rivojlantirish” loyihasi doirasida 35 mln. AQSh dollari miqdorida mablag' ajratilgan. Uning asosiy maqsadi yer, infratuzilma va resurslarga oid ma'lumotlarni raqamlashtirish hamda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishdan [20] iborat. Ushbu faoliyatning asosiy komponentlari milliy geoportal yaratish, 3 ta data markaz (bu katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish uchun mo'ljallangan maxsus infratuzilma majmuasi.) qurish, GPS (CORS) (GPS (Global joylashishni aniqlash tizimi) – bu yer yuzasidagi aniq koordinatani sun'iy yo'ldoshlar orqali aniqlaydigan tizim. CORS (Doimiy ishlaydigan ma'lumotnoma stansiyalari) – bu doimiy ishlaydigan yer usti GPS stansiyalari tarmog'i bo'lib, yuqori aniqlikdagi koordinatalarni ta'minlaydi. Birgalikda GPS (CORS) tizimi – bu sun'iy yo'ldosh signallarini qabul qiluvchi doimiy stansiyalar orqali juda yuqori aniqlikdagi (sm darajasida) joylashuvni aniqlash tizimini anglatadi.) stansiyalarini o'rnatish, 3D shahar modeli (bu shahar hududining uch o'lchamda (uzunlik, kenglik, balandlik) raqamli tasviri bo'lib, unda binolar, yo'llar, daraxtlar va infratuzilmalar real ko'rinishga muvofiq tarzda modellashtiriladi. Bu – shaharni kompyuter ichida “jonli maket” sifatida yaratish demakdir. 3D shahar modelida binolar, yo'llar va transport tizimi, yashil hududlar, infratuzilma, relief bo'ladi.) yaratishdan iborat. Natijada yer resurslaridan samarali foydalaniladi, biznes uchun aniq ma'lumotlar bazasi yaratiladi, urbanizatsiya boshqaruvi yaxshilanadi. Keyingi loyiha, “Yashil iqtisodiyot”ga o'tishni qo'llab-quvvatlash bo'lib, unda Hukumat bilan birgalikda strategik dastur ishlab chiqilgan, donorlarni koordinatsiya qilish tizimi yaratilgan. Uning muhim jihatlari sifatida davlat organlari uchun ekspertlar jalb qilingan, iqlim siyosati bo'yicha treninglar tashkil etilgan, jamiyatda ekologik ongni oshirish

imkoniyati ta'minlangan. Natijada 2030-yilgacha karbonot angdrid gazi emissiyasini kamaytirish orqali yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni tezlashtiriladi.

GGGI (Global Green Growth Institute – Global yashil o'sish instituti, Janubiy Koreya (Seul) markazida) – bu, “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishga ixtisoslashgan xalqaro tashkilot bo'lib, davlatlarga ekologik barqaror siyosat ishlab chiqishda va “yashil” investitsiyalarni o'zlashtirishda yordam beradi. Uning asosiy vazifalari iqtisodiy o'sishni ekologiyaga zarar bermasdan amalga oshirish, “yashil iqtisodiyot”ga o'tishni qo'llab-quvvatlash, iqlim o'zgarishiga qarshi siyosat ishlab chiqish, yashil investitsiyalarni jalb qilishdan iborat. Masalan, u, chiqindilarni qayta ishlash va energiya samarador tuzulmalarni qurishda yordam beradi. GGGI odatda, hukumatlar bilan hamkorlik qiladi, iqtisodiy strategiyalar ishlab chiqadi, investitsiya loyihalarini tayyorlaydi. O'zbekistonda GGGI yashil iqtisodiyot strategiyasini ishlab chiqishda va ekologik loyihalarni moliyalashtirishda ko'maklashadi, “yashil” texnologiyalarni joriy etishga yordam beradi. GGGI – bu davlatlarga iqtisodiy rivojlanishni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirishda yordam beradigan xalqaro tashkilot. GGGI bilan amalga oshirilayotgan loyihalardan biri “Climate finance gaps (Iqlimni moliyalashtirishdagi kamchiliklar)” (2025) loyihasi bo'lib, u “Bridging the gaps of climate finance in Central Asia (Markaziy Osiyoda iqlimni moliyalashtirishdagi kamchiliklarni bartaraf etish)” deb nomlangan. Uning maqsadi yashil investitsiyalarni jalb qilish, moliya sektorini “yashillashtirish” kabilar. Bu amaliy jihatdan banklarga ESG “ekologik, ijtimoiy, boshqaruv” (tushunchaning qisqartmasi bo'lib, u kompaniyalar va loyihalarni baholash mezonlari tizimi hisoblanadi. ESG – bu kompaniya faqat foyda emas, balki ekologiya, jamiyat va boshqaruv bo'yicha qanchalik mas'uliyatli ekanini ko'rsatadigan tizim.) bo'yicha standartlarini joriy etishga va yashil obligatsiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu jarayon ekologik loyihalarga kapital oqimini oshiradi va moliya tizimi transformatsiya qilinishini ta'minlaydi. Bu borada, ikkinchi loyiha esa iqlimga moslashuvchanlik (2024–2027) xususida bo'lib, u suv toshqinlariga va qurg'oqchilikka qarshi texnologiyalar joriy etishdan iborat. Uning asosiy elementlari tabiiy ofatlardan erta

ogohlantiruvchi tizimlardan va “aqlli” monitoring texnologiyalaridan tashkil topadi. Natijada qishloq xo‘jaligi xavflari kamayadi va ekologik barqarorlik ta‘minlanadi. Ushbu yo‘nalishda uchinchi loyiha esa yashil iqtisodiyot siyosati va investitsiyalar bo‘lib, 2019-yildan boshlab faol hamkorlik asosida yo‘lga qo‘yilgan. Uning yo‘nalishlari yashil binolar, karbon siyosati, iqlimga chidamli qishloq xo‘jaligi kabilardan iborat. Natijada milliy iqtisodiyotning ekologik transformatsiyasi ortadi va “yashil” investitsiyalarni jalb qilish rivojlanadi.

SWITCH-Asia – bu European Union tomonidan moliyalashtiriladigan dastur bo‘lib, Osiyo mamlakatlarida barqaror iste‘mol va ishlab chiqarishni (SCP – Sustainable Consumption and Production – Barqaror iste‘mol va ishlab chiqarish) rivojlantirishga qaratilgan. Uning asosiy maqsadi resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, barqaror ishlab chiqarish va iste‘molni rivojlantirish, sirkulyar iqtisodiyotga o‘tishni qo‘llab-quvvatlash, yashil biznesni rivojlantirishdan iborat. U kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, davlat siyosatini takomillashtirish, texnik yordam va treninglarni, pilot loyihalarni moliyalashtirish yo‘nalishlarida ishlaydi. Bugungi kunda O‘zbekistonda SWITCH-Asia orqali yashil iqtisodiyot loyihalari, resurs samaradorligi dasturlari, ekologik ishlab chiqarish tashabbuslari amalga oshirilmoqda. Zero, SWITCH-Asia Osiyoda yashil iqtisodiyot va sirkulyar tizimlarni rivojlantirishga qaratilgan xalqaro dastur hisoblanadi. Masalan: kichik biznesda ekologik texnologiyalarni joriy etish mumkin. SWITCH-Asia dasturi bo‘yicha dastlabki, loyiha “Barqaror ishlab chiqarish va iste‘mol, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash” borasida bo‘lib, uning amaliy jihatlari resursni tejovchi texnologiyalar, chiqindilarni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish kabilardan iborat. Masalan, tekstil va qishloq xo‘jaligida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, sanoatda chiqindilarni qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish mumkin. Ikkinchi loyiha, sirkulyar iqtisodiyot elementlarini joriy etishga qaratilgan bo‘lib, ayniqsa, bunda oziq-ovqat sanoatiga, qadoqlashga va tekstilga ustuvorlik beriladi. Natijada chiqindilar resursga aylantiriladi va ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi. Bunday hamkorlikning iqtisodiy jihatdan ahamiyati xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda, yangi

texnologiyalar kirib kelishida, ekologik muammolarni bartaraf qilinishida va milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda yuzaga chiqadi. Demak, mamlakatlar xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda iqtisodiy, ekologik va institutsional rivojlanishga qaratilgan loyihalarni faol amalga oshiradi. Umuman, ushbu loyihalarni 3 yo'nalishga ajratish mumkin. Xususan, birinchisi, institutsional rivojlanish bo'yicha raqamlashtirish (Jahon banki), ekologik siyosatni ishlab chiqish (GGGI); ikkinchisi, ekologik transformatsiyaga oid yashil iqtisodiyot, iqlimga moslashuvchan tizim; uchinchisi, real sektor modernizatsiya qilish uchun kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarishni optimallashtirish kabilardan iborat. Shu bois, O'zbekistonda bu xalqaro tashkilotlar bilan amalga oshirilayotgan loyihalar iqtisodiy o'sishni, ekologik barqarorlikni, raqamli transformatsiyani bir vaqtning o'zida ta'minlaydigan kompleks rivojlanish modelini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Sirkulyar iqtisodiyotga o'tish jarayonida "policy mix" mexanizmi muhim strategik vosita hisoblanadi. U turli siyosat instrumentlarini yagona tizimga birlashtirish orqali resurs samaradorligini oshirishga, ekologik barqarorlikni ta'minlashga va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga imkoniyat beradi. Shu bilan birga, ushbu mexanizmni samarali joriy etish uchun davlat boshqaruvi, biznes va jamiyat o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarur.

Sirkulyar iqtisodiyotga o'tish jarayonida "policy mix" mexanizmini joriy etish borasida taklif va tavsiyalar ham mavjud bo'lib, u quyidagilardan iborat:

Siyosiy jihatdan kompleks yondashuvini joriy etish uchun iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy-siyosiy chora-tadbirlarini integratsiya qilish kerak.

Soliq va moliyaviy rag'batlarni kuchaytirish maqsadida qayta ishlash va resurs tejamkor texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash zarur.

Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish uchun sirkulyar iqtisodiyotga oid huquqiy asoslarni va qonunchilikni takomillashtirish darkor.

Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun "yashil texnologiyalar"ni joriy etishga investitsiyalarni oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Institutsional muvofiqlashtirishni kuchaytirish maqsadida davlat organlari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish lozim.

Aholi va biznes xabardorligini oshirish uchun ekologik madaniyatni shakllantirish darkor.

Demak, "policy mix" siyosati va xalqaro standartlarga asoslangan regulyator baza sirkulyar iqtisodiyotga o'tishning asosiy va muhim instrumentlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, O'zbekiston uchun ishlab chiqilgan CEAP bu yondashuvning amaliy namunasi bo'lib, agrosanoat sektori orqali butun mamlakat iqtisodiyotini yopiq siklga o'tkazishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2019–2030 йилларда «яшил» иқтисодиётга ўтиш стратегияси: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 октябр ПҚ-4477-сон қарори. WWW.lex.uz

2. 2030 йилгача яшил иқтисодиётга ўтиш ислоҳотлари самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 2 декабр ПҚ-436-сон қарори. WWW.lex.uz

3. Чиқиндиларни бошқариш тизимини такомиллаштириш тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 4 январдаги ПФ-5-сон фармони. WWW.lex.uz

4. Dales, J. H. (1968). Pollution, property & prices: An essay in policy-making and economics. University of Toronto Press.

5. Ellen MacArthur Foundation. (2019). Completing the picture: How the circular economy tackles climate change. <https://ellenmacarthurfoundation.org/completing-the-picture>

6. Ellerman, A. D., Joskow, P. L., Schmalensee, R., Montero, J.-P., & Bailey, E. M. (2000). Markets for clean air: The U.S. Acid Rain Program. Cambridge University Press.

7. European Commission. (2020). A new circular economy action plan: For a cleaner and more competitive Europe. <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:52020DC0098>
8. Fullerton, D., & Metcalf, G. E. (2001). Environmental controls, scarcity rents, and pre-existing distortions. *Journal of Public Economics*, 80(2), 249–267. [https://doi.org/10.1016/S0047-2727\(00\)00112-1](https://doi.org/10.1016/S0047-2727(00)00112-1)
9. Geissdoerfer, M., Savaget, P., Bocken, N. M. P., & Hultink, E. J. (2017). The circular economy – A new sustainability paradigm? *Journal of Cleaner Production*, 143, 757–768. <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2016.12.048>
10. Ghisellini, P., Cialani, C., & Ulgiati, S. (2016). A review on circular economy: The expected transition to a balanced interplay of environmental and economic systems. *Journal of Cleaner Production*, 114, 11–32. <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2015.09.007>
11. Goulder, L. H., & Parry, I. W. H. (2008). Instrument choice in environmental policy. *Review of Environmental Economics and Policy*, 2(2), 152–174. <https://doi.org/10.1093/reep/ren005>
12. Jaffe, A. B., & Stavins, R. N. (1995). Dynamic incentives of environmental regulations: The effects of alternative policy instruments on technology diffusion. *Journal of Environmental Economics and Management*, 29(3), 43–63. <https://doi.org/10.1006/jeem.1995.1036>
13. Kirchherr, J., Reike, D., & Hekkert, M. (2017). Conceptualizing the circular economy: An analysis of 114 definitions. *Journal of Cleaner Production*, 150, 221–232. <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2017.02.007>
14. Korhonen, J., Honkasalo, A., & Seppälä, J. (2018). Circular economy: The concept and its limitations. *Ecological Economics*, 143, 37–46. <https://doi.org/10.1016/j.ecolecon.2017.06.041>
15. Lieder, M., & Rashid, A. (2016). Towards circular economy implementation: A comprehensive review in context of manufacturing industry. *Journal of Cleaner Production*, 115, 36–51. <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2015.12.042>

16. OECD. (2021). Policy instruments for the environment. OECD Publishing.

17. Pigou, A. C. (1920). The economics of welfare. Macmillan.

18. Tietenberg, T. (2006). Emissions trading: Principles and practice (2nd ed.). Resources for the Future Press. <https://doi.org/10.4324/9781933115307>

19. World Bank. (2020). Resource efficiency and circular economy in developing countries. World Bank Group.

20. <https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2025/05/19//https://projects.worldbank.org/en/projects-operations/project-detail/P506803>